

NAVOIY VA XALQ OG'ZAKI IJODI.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi o'qituvchilari

Gulnoza Aslanova, Feruza Ravshanova

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta ta'lim maktablarida va akademik litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun Alisher Navoiyning ijodini o'rganishda va uning asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilgan maqollar, hikmatli so'zlarning qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Navoiyning nafaqat epik balki lirik asarlaridagi misralarda ham buning yaqqol misoli ko'rinib turadi. Bilimga ishtiyoq uyg'otishi va dunyoqarashini shakllantirish uchun qo'shimcha adabiyotlardan ham ma'lumotlar yig'ilgan.

Kalit so'zlar: “afsona”, “roviy”, “hikoyatchi”, “qissago'y”, “qissasoz”, “qissapardoz”, “qissaxon”

Annotation: This article provides students of secondary schools and academic lyceums with the opportunity to study the life and information which is provided to help organize lessons using additional information in the study, development of thinking and understanding the diversity of the Alisher Navai's work.

O'zining butun ijodiy va hayotiy faoliyati hamda iste'dodini xalq manfaati, umum manfaati, eli va yurtining ravnaqiga bag'ishlagan ulug' siymolardan biri – buyuk mutafakkir, shoir, olim, davlat va madaniyat arbobi Nizomiddin mir Alisher Navoiydir. Ulug' mutafakkir umri davomida xalq baxt-saodati yo'lida kurashdi, xalq bilan birga bo'ldi, uning osoyishta hayoti va kelajagi uchun butun borlig'ini bag'ishladi. Xalq ichiga chuqur kirib borgan shoir ijodi ham xalq og'zaki ijodi buloqlaridan bahramand bo'ldi, bu chashmadan qonib -qonib suv ichdi va gurkirab yashnadi. Xalq uning ijodkorlik dahosini ulug'lagan Navoiy xalq og'zaki ijodiyotiga ayniqsa, xalq she'riyati – qo'shiq va afsonalarga, maqol va masallarga chuqur kirib bordi. Har bir asarida

ulardan bahra olganligini ta`kidlab o`tdi. Chunonchi, shoir “Farhod va Shirin” dostonida shunday deydi:

Birovkim bu chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg'on ko`rdi, terdi
Hamul yerda emas gul istamak xo`b,
Bu bo'ston sahnida gul ko`p chaman ko`p.
Chu bu so`zlarga fikr etti zamirim,
Ko`rindi borcha ma`ni dilpazirim.
Qilib ko`nglumni bu andisha shaydo,
Tavorix ayladim har sori paydo.

Demak, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”ni yaratmoq uchun “afsona” va “tarix”ning poyonsiz bahriga sho`ng`ib, undan oliy qadr gullar tergan ekan. Alisher Navoiy turli yozma manbalar va og`zaki bayonotlar orqali Markaziy Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq xalqlarining juda ko`p afsona, rivoyat, qissa, doston, hikoya va boshqa janrdagi turli - tuman asarlarini yaxshi bilgan va ulardan ijodiy foydalangan. Shoir “Layli va Majnun” dostonining oxirgi 38-bobida bu asarni xalq og`zaki afsonalari asosida yaratganini ta`kidlab, shunday yozadi:

...Yuz shukrki, bu fasonai dard,
Har lafzida yuznishonai dard.
Jon pardalaridin anda avroq,
Jondin berib ul varaqni ushshoq.
Yozg`onda midodi ko`z qarosi,
Yozg`on qora qayg`u mojarosi...
So`ngin nechakim uzottim oxir,
Yig`lay-yig`lay tugottim oxir...

Qissa, rivoyat, afsona, ertak xalq og`zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan bo`lib, ko`pincha kishilar qishning uzun tunini shunday asarlarni tinglash bilan zerikarsiz o`tkazib, dam olganlar va fikr doiralarini kengaytirganlar. Qissa, rivoyat, afsona, ertak va boshqalar davrdan davrga o`tib, ijodiy qayta ishlagan, turli

o'z qarashlariga duch kelib, har xil variantlarga aylangan. Bularni aytuvchilar turli davr va turli joylarda har xil nomlar bilan : roviy, qissaxon, qissago'y, cho'pchakchi, ertakchi, oqin, baxshi, shoir va boshqa nomlar bilan atalgan. Alisher Navoiy ularni "roviy", "hikoyatchi", "qissago'y", "qissasoz", "qissapardoz", "qissaxon", nomlari bilan ataydi.

Lirikasida ham, dostonlarida ham ularga murojaat qiladi, ayrim asarlar yoki asar qahramonlarning nomini zikr etadi, xalq ijodining sehrlovchi xususiyatini ta'kidlaydi, o'z asarlari bilan qiyos etadi va hokazo.

Masalan:

Dema roviyo erur Farhod-u Majnun qissasi muhlik,
Ani alqissa bir "dol-u alif" bil dostonimdin.

"G'aroyib us - sig'ar"

So'zga berguncha qissago'y anjom,
G'oyibidin nishon topib Bahrom.

("Xamsa")

Roviy bahrlaridin manga yo'qtur kecha uyqu,
Qissai Hamza degil gohiyu, gah qissai Yusuf.

"Navodir ush - shabob"

Xullas, xalq qissalari va ertaklariga, umuman, xalq og'zaki ijodiga e'tibor, ulardan ijodiy foydalanish adabiy hayotda ijodiy bir hodisadir. Buni buyuk shoir Alisher Navoiy ijodiyotining har bir sahifasi bilan isbotlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us - sig'ar. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 1-jild.-T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush - shabob. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 2-jild.-T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 6-jild. Xamsa. T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 7-jild. Sab' ai sayyor. T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.